“O’G‘UZ, ALANQUVA VA SHAYBONIYNOMA’’ ASARIDA HIKOYAT JANRINING XUSUSIYATLARI

Magistr Fayzullayeva Diyora

Annotatsiya. Ushbu tezisda Ollomurod Annaboy o‘g‘lining “ O‘g‘uz, Alanquva va Shayboniynoma” asarida keltirikgan hikoyat tahlilga tortildi. Tarixiy asar yaratishda hikoyat janrining xususiyatlari va ahamiyati o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: hikoyat, Alanquva, O‘g‘uz, Shayboniyxon, Ching‘izxon.

Hikoyat janri Sharqda keng tarqalgan janrlardan biridir. Tarixiy mavzudagi asarlarda hikoyatlar ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy-axloqiy mazmun kasb etadi. Tarixiy asarlarda tarixiy shaxslar bilan bog‘iq vogealarni bayon gilishda, ularning shaxsiy sifatlari, insoniy fazilatlari, olijanobligi va boshqa jihatlarini ko‘rsatish maqsadida keltiriladi.[1] Ollomurod Annaboy o‘g‘lining “O‘g‘uz, Alanquva va Shayboniynoma” asarida keltirilgan hikoyatlar ham shunday vazifani bajargan.

“Chingizxonning yigitligida ul holida bir kun nafs havasg‘a berildi. Ahlining orasig‘a bir qizni qochurmoqchun boradur. Ermish yo‘lda boraturg‘on o‘trusidin bir ulug‘ tosh yumalana-yumalana tezda keladur. Ermish Chingizxon hayron qolibdurkim bu toshni kishi yumalatmaydur. Yel ta’bir tomon kuchluk yel emasturkim tosh mening o‘trumga yumalatib kelturadur deb, ajoyibg‘a qolib fikr etarkim muning ma’nisi buldurkim, bu yo‘lg‘a bormay qaytg‘il deb yana shayton vasvasa qilib qaytgani qo‘ymas .Yuzlanib yo‘lga kirar”. (33-a-b sahifalar)[2] Ushbu hikoyat orqali Chingizxonning murakkab, ziddiyatli va insoniy jihatlari ochib beriladi. U faqat buyuk sarkarda sifatida emas, balki nafs, vasvasa va ichki kurashlarga duch keladigan oddiy

inson sifatida tasvirlanadi. Hikoyada uning “bir qizni qochurmoq” niyati tasvirlanadi. Bu uning nafs va shahvoniy istaklarga beriluvchanligini ko‘rsatadi, tarixiy shaxs ham insoniy ehtiroslardan holi emasligini ochadi. Tosh hodisasiga duch kelganda Chingizxon hayron qoladi, sababini izlaydi, ma’nosini talqin qilishga urinadi. Bu uning kuzatuvchan, fikrlovchi, ramz va ishoralarni anglay oladigan shaxs ekanini ko‘rsatadi. U toshni oddiy hodisa deb qabul qilmaydi, balki buni ogohlantirish deb tushunadi, ya’ni unda vijdon va ichki idrok mavjud. Bu jihat uni mutlaqo johil emas, balki ma’naviy sezgi egasi sifatida ko‘rsatadi. Bu hikoyat uni ideal qahramon emas, balki ichki ziddiyatlarga ega real inson sifatida ochib beradi. Shu o‘rinda Chingizxon shaxsini bu qadar chuqur yoritish muallifga nega kerak degan savol tug‘iladi. Sababi Ollomurod Annaboy o‘g‘li o‘z asarida ideal shaxs portretini emas real shaxs qiyofasini yaratishni maqsad qilgan. Asar solnoma shaklida emas, ya’ni voqealar yilma-yil tartib bilan bayon qilinmaydi. Unda asosiy e’tibor hukmdorlar shajarisiga qaratilgan. Ularning ajdodlari naqadar qadim va ulug‘ ildizlarga ega ekanligini ko‘rsatib bergan. Muallifning maqsadi o‘z davri hukmdorlarining buyuk o‘tmishi va asrlarga teng tarixinigina yoritish emas, balki o‘tmishda buyuk bobokalonlari ham xatolarga yo‘l qo‘yishgani ammo uni anglab to‘g‘ri xulosalar chiqarishganini ham ko‘rsatib berish bo‘lgan.

“Chingizxon o‘lar chog‘inda o‘g‘lonlariga vasiyat qilg‘ondin so‘ngra beklariga aytibdurkim, har kimning hushyor tura va yasavulingni bilgay Chig‘atoy qoshig‘a borsun va har kimga mol va g‘animat va javonmardlik kerak bo‘lsa O‘qtoy qoshig‘a borsun. Va har kishig‘a odob va farhang va shijoat va saloh kerak bo‘lsa Tulug‘a mulozim bo‘lsin. Mundin o‘zga so‘z demay va beklarini o‘g‘lonlariga ulashtirmaydurur”. (52-a-b sahifalar)

Tarixiy asarlarda hukmdorlarning vasiyatlari alohida badiiy-estetik va mafkuraviy

vazifani bajaradi. Bunday hikoyatlar orqali muallif nafaqat tarixiy voqeani bayon qiladi, balki ideal davlat boshqaruvi, hukmdor va amaldorlarning fazilatlari haqidagi qarashlarini ham ifodalaydi. Chingizxonning o‘lim oldidan o‘g‘illari va beklari haqidagi mazkur hikoyati ham shunday didaktik xarakterdagi rivoyatlardan biridir. Hikoyatning diqqatga sazovor jihati shundaki, Chingizxon beklarni o‘g‘illari orasida tasodifiy taqsimlamaydi. U har bir insonning tabiati va ehtiyojiga qarab yo‘l ko‘rsatadi. Bu esa hukmdorning inson xarakterini chuqur tushunuvchi, davlat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yuvchi arbob sifatida talqin qilinishiga xizmat qiladi. Hikoyatda Chingizxonning “har kimning hushyor tura va yasavulingni bilgay Chig‘atoy qoshig‘a borsun” degan so‘zlari bevosita tartib-intizom g‘oyasini ifodalaydi. Yasovul va yasa tushunchalari mo‘g‘ul davlatining huquqiy asoslarini anglatadi. Demak, Chig‘atoy shaxsida qonun ustuvorligi, davlat intizomi va boshqaruv mexanizmlarining mustahkamligi timsollashtirilgan. Tarixiy manbalarda ham Chig‘atoy qat’iyatli, talabchan va qonunlarga sodiq hukmdor sifatida tasvirlanadi. Muallif ushbu tarixiy xarakter xususiyatini qisqa hikoyat orqali umumlashtirib, uni davlatning huquqiy tayanchi sifatida ko‘rsatadi. Bu yerda Chig‘atoy konkret tarixiy shaxs bo‘lishdan ko‘ra, “qonun” tushunchasining badiiy obraziga aylanadi. Chunki davlatning uzoq yashashi, avvalo, uning qonunlari va tartib-intizomiga bog‘liq ekanligi ta’kidlanmoqda. Vasiyatning ikkinchi qismida “har kimga mol va g‘animat va javonmardlik kerak bo‘lsa O‘qtoy qoshig‘a borsun” deyiladi. Bu jumla O‘qtoyning tabiatidagi saxovat, bag‘rikenglik va iqtisodiy qudratni ifodalaydi. O‘qtoy tarixda Chingizxon imperiyasining hududiy jihatdan eng katta kengayish davrini boshqargan hukmdor sifatida tanilgan. Hikoyatda esa uning bu jihati moddiy farovonlik va muruvvat timsoli sifatida talqin qilinadi. Biroq bu yerda “mol va g‘animat” tushunchalari faqat boylik ma’nosida emas. O‘rta asr tafakkurida davlat qudrati ko‘pincha xazina, ulush va iqtisodiy imkoniyatlar bilan o‘lchangan. Shuning uchun O‘qtoy obrazi orqali davlatning iqtisodiy tayanchi ifodalanadi. Muallif nazarida qonun

qanchalik muhim bo‘lmasin, iqtisodiy qudratsiz davlat barqaror bo‘la olmaydi. Shu sababli O‘qtoy ham davlatning zarur ustunlaridan biri sifatida ko‘rsatilgan. Hikoyatning eng qiziqarli qismi Tulu bilan bog‘liq tasvirdir. Chingizxon “har kishiga odob va farhang va shijoat va saloh kerak bo‘lsa Tulug‘a mulozim bo‘lsin” deydi. Bu yerda Tulu moddiy yoki siyosiy kuch emas, balki ma’naviy komillik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Odatda harbiy imperiyalar haqida so‘z ketganda jangovar qudrat birinchi o‘ringa chiqadi. Ammo mazkur hikoyatda muallif odob, farhang va salohni alohida ta’kidlaydi. Bu esa hikoyatning axloqiy-falsafiy mohiyatini ochib beradi. Tulu obrazida ilm, madaniyat, jasorat va insoniy fazilatlar uyg‘unlashgan. E’tiborli jihati shundaki, Chingizxon o‘z beklarini Tuluga yuborishda mansab yoki boylikni emas, aynan odob va ma’naviyatni mezon qilib oladi. Bu orqali muallif davlatning eng oliy boyligi ma’naviy barkamollik ekanligi haqidagi g‘oyani ilgari suradi. Hikoyatning ichki tuzilishiga nazar tashlansa, unda davlat boshqaruvining uch pog‘onali modeli yaratilganini ko‘rish mumkin. Birinchi pog‘ona – qonun va tartib (Chig‘atoy), ikkinchi pog‘ona – iqtisodiy qudrat va saxovat (O‘qtoy), uchinchi pog‘ona esa – ma’naviyat va axloq (Tulu). Muallif nazarida mukammal davlat aynan mana shu uch unsur uyg‘unligi asosida mavjud bo‘la oladi. Agar ulardan biri yo‘qolsa, davlatning ichki muvozanati buziladi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur hikoyatning asosiy g‘oyasi Chingizxon va uning o‘g‘illarini ulug‘lash emas, balki davlatni mustahkam tutib turuvchi uch asosiy kuch – qonun, iqtisodiy qudrat va ma’naviy barkamollikning birligi haqidagi konsepsiyani ifodalashdan iboratdir. Shu jihatdan hikoyat tarixiy ma’lumot berishdan ko‘ra kengroq ma’noga ega bo‘lib, muallifning siyosiy-falsafiy qarashlarini aks ettiruvchi muhim badiiy vosita vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Олломурод Аннабой ўғли. Ўғуз, Аланқува ва Шайбонийнома. ЎзР ФА ШИ, 4347 рақамли қўлёзма асар. 99 варақ.
2. Абдуллаева М. Адабий-тарихий асарларда кичик жанрлар поэтикаси. Ф.ф.док. дисс. – Самарқанд, 2021. – 274 б.